

This is not registered version of TotalDocConverter

Bir kuni "S"ning miyasiga o'prik teta.

O'ylab qarasa, u hali uncha shakllanmabdi.

U bu fikrning ba'zi burchagi-yu qirg'oqlarini, baland-pastligini tekislashni, poydevorini mustahkamlashni xohladi. Biroq

dangasalik uning erka aqlini karaxt qilib qo'ydi va tomirlarida esnaganday oqa boshladi.

U fikrini qo'lga olib, ma'lum bir paytgacha saqlab qo'yish uchun muzlatgichda muzlatib qo'yishga qaror qildi.

"S"ning yonida "A" ismli bir kishi o'tayotib, uning oldida e'tiborsiz ag'darilib yotgan fikrini sezib qoldi. U qo'lga kiritmoqchi

bo'ldi-da, egasidan so'radi. "S" karomat ko'rsatib, bu fikrni unga sovg'a qildi. Shunday qilib, u "A"ning mulki bo'lib qoldi.

"A" bu fikrga ancha parдоз berdi.

U mohir tadbirkor tojir edi. Fikrlarni qanday qilib sotishni bilar edi.

Sotuvga tayyor bo'lganida o'z do'koniga qo'yib qo'ydi.

"J" ismli mijoz uni sotib olish maqsadida rosa sinchiklab u yog'-bu yog'ini ko'rди, undan hayratga tushib sotib oldi.

Chunki u optimist kishi edi. U fikrni yarqiroq ranglarga bo'yab, uning bo'yniga ipak lenta ilib, uyining o'zi eng yaxshi ko'rgan

burchagiga ilib qo'ydi.

Har kuni ertalab uning qarshisida qahva ichayotganda ko'zlari shod-xurramlikka to'lar, chehrasida tabassum paydo bo'lar edi. U

mana shu bilan har kunga oddiy kulrang kunining bulutlarini haydar edi.

Bundan "M" ismli hamkasbining jahli chiqar, g'azablanar edi, chunki u doiman pessimist edi.

Har safar unikiga kelganida "qani, endi buni menga bersa edi" deb qo'lga kiritishni xohlardi.

Tiqilinch qilib so'rayvergach, undan xijolat tortib, uning xohishini qondirdi. U aslida do'stining tushkunlik girdobidan chiqishiga

va kunlarini xursandchilik va optimistlik alvonlari bilan bezashiga yordam berib, o'z ko'nglini xotirjam qilmoqchi edi.

Chunki "M"ning o'zgarishi juda qiyin edi.

U barcha bezaklarini yechdi, yaltiroqlarini o'chirdi.

Qatl etuvchi qora rangga bo'yadi, so'ng uni eritdi va... o'q hajmidek qolipga quydi.

Qayerga borsa, uni barmoqlari o'ynab, qo'llarida tumordek ko'tarib yurdi.

Bir kuni...

u tumorini qayerdadir unutib qoldirdi. Uni bir och daydi o'g'irlabdi.

U o'ziga to'q, erka yashayotgan bir kishiga hasadi oshib uni o'ldirishni rejalashtirib yurar edi.

U o'g'irlagan qora o'qni to'pponchasiga joyladi, so'ng uni o'sha kishi tomon mo'ljallab otdi va qochib ketdi.

Ertalab gazetalar quyidagi xabarni bosib chiqardi.

Janob "S"ning jasadi topildi, u miyasiga otilgan qora o'qdan o'lgan.